IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: HN64646365

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VAZIRINING
BUYRUG‘I

2023 yil. “28” avgust **225-son**

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samarali tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269-son va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-fevraldagi 72-f-son farmoyishida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samarali tashkil etish yuzasidan ishlab chiqilgan ichki hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati 1-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti 2-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida manfaatlar to‘qnashuvuni boshqarish bo‘yicha nizom 3-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti 4-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tizimi xodimlarining odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘qitilishini tashkil etish bo‘yicha yo‘riqnoma 5-ilovaga;

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: HN64646365

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma 6-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma 7-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 8-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha nizom 9-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglament 10-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy boshqarmalari va tarkibiga kiruvchi muassasalarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari 11-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi to‘g‘risidagi nizom 12-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimlari va koordinatorlari to‘g‘risidagi namunaviy nizom 13-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi nizom 14-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, hududiy bo‘linmalari va uning tuzilmasiga kiradigan tashkilotlar shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha moddani kiritish to‘g‘risidagi yo‘riqnoma 15-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Vazirlik markaziy apparati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Toshkent shahar va hududiy bosh boshqarmalar hamda tizimga kiruvchi tashkilot va muassasalar rahbarlariga ushbu buyruq bilan tasdiqlangan ichki hujjatlar ijrosini belgilangan tartibda **to‘liq va sifatli** ta’minlash yuklansin.

3. Mazkur buyruqning qabul qilinishi munosabati bilan Qurilish vazirligining 2021-yil 25-oktabrdagi 194-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi (J.Fayziyev) buyruq ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni umumlashtirib, vazirlik rahbariyatiga hamda tegishli davlat tashkilotlariga axborot berib borilishini ta’minlasin.

5. Vazirlik devonxonasi (G.Otaboyeva) mazkur buyruqni tarqatish ko‘rsatkichi asosida mas’ul ijrochilarga yetkazilishini ta’minlasin.

6. Ushbu buyruq ijrosi nazorati vazirning birinchi o‘rinbosari SH.Xidoyatov zimmasiga yuklansin.

Vazir **B.Zakirov**

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: HN64646365

Kiritildi:

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i v.v.b.

J.Fayziyev

Kelishildi:

Vazirning birinchi o‘rinbosari

Sh.Xidoyatov

Vazir o‘rinbosari

D.Adilov

Vazir o‘rinbosari

O.Jurayeva

Apparat rahbari

V.Imomov

Vazirning (rejim va kadrlar bo‘yicha) maslahatchisi

Sh.Usmanov

Yuridik bo‘lim boshlig‘i

F.Esanboyev

Inson resurlarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi boshlig‘i

A.Mirzayev

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar, davlat tili va etiket qoidalariga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha mutaxassis

U.Bayzakova

Buyruq № _____

2023-yil “____” _____

1. Vazirlik markaziy apparati.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmalari.

3. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi.

4. “Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi” DUK.

5. Qurilish sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi.

6. Qurilishda texnik me’yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti.

Korrupsiyaga qarshi kurashish

bo‘limi boshlig‘i v.v.b. **J.Fayziyev**